



SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSON VA TABIAT MUNOSABATLARI

Egamnazarova Sarvinoz Xidirnazar qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish

(o'zbek tili) fakulteti 2-bosqich talabasi

e-mail: sarvinoz@gmail.com

Ilmiy rahbar: To'rayeva Dilnoza Nematullayevna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15544847>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 29th May 2025

KEYWORDS

obraz, obrazlilik, poetik talqin, badiiy uslub, peyzaj, epizod, qahramon, kompozitsiya, syujet, tasvir mahorati.

ABSTRACT

Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shgan adib sifatida Jek London, E.S.Topson, E.Xeminguey kabi adiblar qatori tabiat tasvirini mahorat bilan tasvirlangani, yozuvchi uslubiga ko'ra tadqiq etilgan. Maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi badiiy mahorati uning tabiat va inson munosabatlari aks etgan hikoyalari orqali tadqiq etilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev o'zining rang-barang asarlari bilan o'zbek adabiyotining rivojlanishiga bir muncha hissa qo'shgan. Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, avvalo, adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir. Shukur Xolmirzayev adabiyotga Surxon koloritini – o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini – dialektini olib kirdi.

Shukur Xolmirzayev ijodi yuzasidan ko'plab maqolalar va tadqiqotlar, jumladan, H.Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti" risolasi, akademik B.Nazarovning "Shukur Xolmirzayev" nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bundan tashqari yozuvchi hikoyalari haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboev, O.Otaxonov, R.Qo'chqorovlarning, adibning qissalari to'g'risida to'g'risida M.Qo'shjonov, A.Rasulov, M.Olimov; romanlari haqida U.Normatov, O.Tog'aeu, I.G'afurov, S.Sodiqov va boshqa adabiyotshunos olimlarning maqolalari e'lon qilingan. Biroq bu tadqiqot va maqolalarda Sh. Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan edi. Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi mahorati, badiiy so'z san'ati, tasvir uslubi haqida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Jumladan, G.N.Tavaldieva (2001), Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslar yozuvchining hikoyachilikdagi o'ziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosalar berganlar. O'zbek adabiyotida tabiat va inson mavzusi alohida yoritilgan asarlar kam uchraydi, ayniqsa, yozuvchi ijodining salmoqli qismi bu mavzuga bag'ishlangan jihat Shukur Xolmirzayevgagina xosdir. Shu jihatdan yozuvchi ijodida tabiat va inson tasvirining badiiy tadqiq etilishi uning ijodining o'ziga xos qirralari haqida ham ilmiy xulosalar berishga imkon beradi.

Shukur Xolmirzayev "Ot egasi" hikoyasida inson, tabiat va hayvonot olami bir-biriga bog'liqligi tasvirlangan. Hikoya qahramoni Inod uchun ot shunchaki minish vositasi emas, balki u oilasi a'zosidek qadrli bo'lib qolganligi voqealar rivojida aks etadi. Qorabayir ot otasidan meros

qolgan, uning hayotini bir necha bor saqlab qolgan, oilasi fojiasidan so'ng ham Inodning yonida bo'lgan yagona sodiq do'stidir. Inson va hayvonot o'rtasidagi bu ruhiy bog'liqlik har doim ham anglab yetilmaydi. Egamberdidek kishilar uchun ot shunchaki hayvon, davlat uchun esa resurs. Ammo Inod uchun bu jonivor vafot etgan yaqinlaridan yodgorlik, yuragining bir bo'lagi edi. Shuning uchun ham u jonivorni begonalar qo'lga bergandan o'zi otib o'ldirishni afzal ko'radi. Ammo bu voqeadan so'ng Inod o'zining yana bir boyligini yo'qotadi. Inodning oilasi uchragan fojiali voqealardan so'ng qorabayirga minib tog'larning, adirlarning go'zalligidan va tabiat bilan muloqot qilib bir muncha yengillaydi, ruhiy azoblardan qutiladi hamda qishlog'iga qaytadi. Bu voqea ham tabiat va inson bir-biriga bog'liqligi, inson tabiatning bir bo'lagi ekanligining yorqin dalili.

Sh.Xolmirzayevning "Jarga uchgan odam" hikoyasi ham tabiat hamda inson chambarchas bog'liqligining yorqin dalilidir. Muallif tabiatni shunchaki, fon sifatida emas, balki jonli obraz sifatida tasvirlaydi. Boysuntog'ning osmoni, adirlari, archazorlari, hayvonot olami shu qadar hayotiy tasvirlanganki, o'quvchi ham ularni ko'z oldiga keltirishi, uning go'zalligidan bahramad bo'lishi mumkin. Masalan: "Tog'ning osmonga qadalgan o'rkachlarida parquv bulutlar suzib yurar, ular tog' bilan zangori osmonni bir-biriga qo'shib turganga o'xshar edi" [11]. Asar qahramoni Islom orqali muallif insonning tabiat bilan bog'liqligini, uning hayotiy izlanishlari va ichki kechinmalarini yuksak badiiylik bilan ochib beradi. Islomning bolaligida tog' va tabiatga mehr qo'yishi, harbiy xizmatdan keyin o'z yurti va tog'larini qo'msashi, keyinchalik gazetada ishlash orqali tabiatga bo'lgan muhabbatini so'z orqali ifodalashi uning ruhiy o'sishini ko'rsatadi. Masalan: "Islom qishlog'iga keldi, uyiga kirdi, tog'lariga sayrga ham chiqdi. Ana shunda u endi bu yurtdan bir umr judolikda yashay olmasligini, jasi ham, albatta, shu yerda dafn etilishi kerakligini chuqur his qildi"[11]. Bu jumlada ona yurtga bo'lgan sadoqat va yurakdan kechayotgan hissiyotlar juda ta'sirli aks etgan. Ammo, Ismoil Yusupovichdek kimsalar ham jamiyatimizda yo'q emas. Shuningdek uning xatti-harakatlari ona tabiatimizga, hayvonot olamiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Rejissyor uchun ayiq shunchaki ayolini ko'nglini ko'tarish uchun sovg'a vositasi bo'lsa, Islomjon uchun mo'jiza, bir tabiat boyligi, ayiq bolalariga esa ularning onasigina bo'lib qolmay himoyachisi, boquvchisi ham edi. Lekin Ismoilning tutgan yo'li, ya'ni ayiqni otib o'ldirishi Islom uchun fojia bo'ldi hamda ayiqning o'chini olish uchun uni jordan uloqtirib yubordi. Hikoya shu nuqtada o'z nihoyasiga yetadi.

Shukur Xolmirzayevning uslubi sodda, ta'sirchan va chuqur falsafiy mazmunga ega. Uning ijodida realistik tasvir kuchli bo'lib, inson ruhiyati va ichki kechinmalari tabiiy ravishda ochib beriladi. Muallif so'zlarni ortiqcha bezamasdan, hayotiy va aniq ifodalar orqali katta ma'nolarni singdirishga intiladi. Xolmirzayev uslubining asosiy xususiyatlaridan biri tasviriy qudrat bo'lib, u tabiat manzaralarini realistik va hayajonli tarzda ifodalash orqali qahramonning his-tuyg'ularini yoritadi. Dialoglar kam, lekin qisqa va mazmunli, ichki monologlar esa inson ruhiyati va ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi. Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlashda sodda, lekin ta'sirchan til uslubidan foydalanadi. Shukur Xolmirzayev o'z asarlarida hayot haqiqatini soddalik va badiiy mahorat bilan yoritib, insoniy qadriyatlarni ilgari suradi. Uning uslubi fikrni siqiq shaklda ifodalashga asoslangan bo'lib, o'quvchini teran mushohadaga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Н.Г.Чернышевский. *Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика.* Библиотека "Огонек" М.: "Правда", 1974. (http://azlib.ru/c/chernyshewskij_n_g/text/_0240.shtml)
2. Quronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari.* Noshir, Toshkent- 2019.
3. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.

4. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(3), 49-53.
5. Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 832-841.
6. Saymuratova, I., To'rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 19-24.
7. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER'S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. *Open Access Repository*, 9(12), 163-174.
8. To'rayeva, D. (2024). BADIY ASAR BOIGRAFIYASI BILIMDONI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(2), 67-70.
9. Turayeva, D., Sariboyeva, M., & Primov, A. (2024). FUNDAMENTALS OF CREATIVE LABORATORY. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
10. Dilnoza, T., Maqsuda, S., & Abdulatif, P. FUNDAMENTALS OF CREATIVE LABORATORY.
11. Xolmirzayev "Saylanma" Sharq nashriyoti. – Toshkent, 2013. – 234 b.

